

HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGI MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)

Musayev Jamshid Kaxramonovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17117075>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarning investitsion jozibadorligi masalalari, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri va mavjud muammolar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri — Navoiy viloyati tanlandi. Viloyatning tabiiy resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari, geostrategik joylashuvi va kadrlar potentsiali uning investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavjud muammolar – infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, energetika va transport-logistika tizimidagi cheklovlar, byurokratik to‘siqlar, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, innovatsion faoliyatning sustligi va ekologik xatarlar aniqlab berildi. Maqolada ushbu muammolarni hal etish bo‘yicha qator takliflar ilgari surilgan: davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilma modernizatsiyasini jadallashtirish, investitsion jarayonlarda “yagona oynali” tizimni keng joriy etish orqali tartib-taomillarni soddalashtirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda kichik va o‘rta biznes uchun kredit va grant mexanizmlarini kengaytirish. Shuningdek, viloyat sanoatida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan “yashil iqtisodiyot” dasturlarini kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: Hududlar investitsion jozibadorligi, Navoiy viloyati, iqtisodiy salohiyat, xorijiy investitsiyalar, mahalliy investitsiyalar, infratuzilma muammolari, transport-logistika, moliyalashtirish mexanizmlari, davlat-xususiy sheriklik, byurokratik to‘siqlar, innovatsion texnologiyalar, kadrlar salohiyati, ekologik xavfsizlik, yashil iqtisodiyot, erkin iqtisodiy zona.

Abstract. This article analyzes the issues of investment attractiveness of regions, their impact on economic development and existing problems from a scientific, theoretical and practical perspective. Navoi region, one of the regions of Uzbekistan with high economic potential, was selected as the object of research. The natural resources, production capacities, geostrategic location and human resources potential of the region were considered as the main factors determining its investment attractiveness. At the same time, the research identified existing problems - insufficient development of infrastructure, restrictions in the energy and transport-logistics systems, bureaucratic obstacles, limited sources of financing, weak innovative activity and environmental risks. The article puts forward a number of proposals to solve these problems: accelerating infrastructure modernization on the basis of public-private partnerships, simplifying procedures through the widespread introduction of a "single window" system in investment processes, strengthening cooperation with international financial institutions, and expanding credit and grant mechanisms for small and medium-sized businesses. It was also emphasized the need to introduce innovative technologies in the regional industry, strengthen cooperation between research institutions and manufacturing enterprises, and expand "green economy" programs aimed at ensuring environmental safety.

Keywords: *Investment attractiveness of regions, Navoi region, economic potential, foreign investments, local investments, infrastructure problems, transport and logistics, financing mechanisms, public-private partnership, bureaucratic obstacles, innovative technologies, human resources potential, environmental safety, green economy, free economic zone.*

Kirish: Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish masalasi ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

Investitsion muhitni yaxshilash nafaqat mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish, balki yangi ish oʻrinlarini yaratish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi. Shu bois hududlar iqtisodiy salohiyatini kompleks rivojlantirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy infratuzilmani yaratish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Navoiy viloyati Oʻzbekistonning sanoat markazlaridan biri boʻlib, yirik kon-metallurgiya majmuasi, kimyo sanoati korxonalari va erkin iqtisodiy zonalar bilan ajralib turadi. Viloyatning tabiiy resurslari, geostrategik joylashuvi va sanoat quvvatlari uni yirik investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay hudud sifatida koʻrsatadi. Shu bilan birga, investitsion jarayonlarda hali ham hal etilishi lozim boʻlgan qator muammolar – infratuzilma cheklovlari, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion faoliyatning sustligi va ekologik xavfsizlik masalalari mavjud. Mazkur maqolada aynan shu muammolarni ilmiy asosda oʻrganish va ularni bartaraf etish boʻyicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilib qoʻyilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Oʻzbekistonlik olimlar ham hududiy investitsion jozibadorlik masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Jumladan, Nadirkhanov U. S. (2021) oʻz izlanishlarida mamlakatda investitsion muhitni rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlab, ularni hal qilish yoʻllarini taklif etgan. U, xususan, xorijiy sarmoyadorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va soddalashtirilgan tartiblarni joriy etish masalasini dolzarb deb biladi. Shuningdek, Amonboev Mahamasiddiq (2018) esa fond bozori va investitsion infratuzilma masalalarini tahlil qilib, kapital bozorlarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotga investitsiya oqimini koʻpaytirish mumkinligini asoslab bergan. N. E. Anvarovich (2023) hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish yoʻllariga eʼtibor qaratib, ayniqsa mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqqan. Osiyo mintaqasida olib borilgan tadqiqotlar ham diqqatga sazovordir.

Han-Sol Lee (Janubiy Koreya, 2022) oʻz ilmiy ishida MDH davlatlari, jumladan Oʻzbekiston boʻyicha Koreya kapitalining kirib kelishiga taʼsir qiluvchi motivatsiyalarni tahlil qilib, asosan resurslarga boylik va bozor hajmi omillariga urgʻu bergan. Shu bilan birga, Sergey U. Chernikov (Rossiya, 2022) va Szabolcs Nagy (Vengriya, 2022) Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari boʻyicha xorijiy investitsiya oqimlarini empirik ravishda tahlil qilib, institutsional omillar, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy muhitning jozibadorlikka kuchli taʼsir koʻrsatishini isbotlaganlar.

Markaziy Osiyo davlatlari kesimida esa K. K. Nurasheva (Qozogʻiston, 2024) kapital oqimlari va investitsion jozibadorlikni qiyosiy oʻrgangan boʻlib, barqaror makroiqtisodiy siyosat va huquqiy muhitning muhimligini alohida taʼkidlagan.

Rossiyalik olimlar ham bu borada faol tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, E. Mitrofanov (2021) Volga federal okrugi hududlari misolida investitsion jozibadorlik modellarini ishlab chiqib, infratuzilma va transport-logistika tizimining sarmoyador qarorlariga katta ta'sirini ochib bergan. D. V. Shcherbakova (2019) esa Rossiya hududlari bo'yicha investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni tahlil qilib, byurokratiya darajasi, soliq tizimi va huquqiy shaffoflikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan.

Yevropa va Osiyo tadqiqotchilari qatorida Vyetnamlik H. T. Nguyen (2024) ham Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarida xorijiy investitsiyalar va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rgangan. U, asosan, FDI yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim bo'lsa-da, mehnat bozorining sifat ko'rsatkichlari kuchli bo'lmasa, maksimal samara berolmasligini isbotlab bergan. Le A. N. (Yaponiya/Osiyo, 2023) esa siyosiy barqarorlik va xorijiy investitsiyalar oqimlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilib, faqat barqaror siyosiy muhit emas, balki samarali hukumat va iqtisodiy ochiqlik ham muhim ekanini ta'kidlagan.

AQShlik tadqiqotchilar orasida J. Smith (2020) xorijiy investitsiyalar va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni solishtirma tadqiq qilib, investitsiyalar oqimi ko'pincha sanoati rivojlangan va resurslari boy hududlarda yuqori bo'lishini ilmiy asoslab bergan.

Umuman olganda, oxirgi yillarda olib borilgan ushbu tadqiqotlar hududiy investitsion jozibadorlikning shakllanishida infratuzilma, huquqiy shaffoflik, siyosiy barqarorlik, resurslar, bozor hajmi, kadrlar salohiyati va innovatsion imkoniyatlar eng asosiy omillar sifatida qayta-qayta tilga olinayotganini ko'rsatadi. Bu esa Navoiy viloyati singari iqtisodiy salohiyati yuksak hududlarda jozibadorlikni oshirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda hududlarning investitsion jozibadorligini baholash uchun ilmiy-analitik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, mavzuga oid nazariy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari tahlil qilinib, investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillar tasniflandi. Tadqiqotda iqtisodiy nazariya, hududiy rivojlanish konsepsiyalari hamda xalqaro investitsiya oqimlari haqidagi ilmiy yondashuvlar asosiy metodologik poydevor sifatida qo'llanildi. Metodologiyaning ikkinchi bosqichida statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. So'ngi yillar davomida Navoiy viloyatida amalga oshirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, yangi ish o'rinlari soni va yirik investitsiya loyihalari haqida rasmiy davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida ma'lumotlar yig'ildi. Ushbu ko'rsatkichlar boshqa iqtisodiy jihatdan o'xshash hududlar bilan taqqoslab, viloyatning nisbiy jozibadorligi baholandi.

Metodologiyaning uchinchi bosqichida ekspert baholash va SWOT-tahlil usullari qo'llanildi. Navoiy viloyatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlanib, ularning investitsion jozibadorlikka ta'siri baholandi. Bu jarayonda mahalliy iqtisodiy subyektlar, bank-moliya muassasalari hamda sanoat korxonalari ekspertlari fikrlari hisobga olindi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihalari tahlil qilinib, ularning investitsion muhitga ta'siri o'rganildi. Metodologiyaning yakuniy bosqichida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Statistik tahlillar va ekspert baholash natijalari umumlashtirilib, Navoiy viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish uchun zarur strategik chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar ilmiy asosda ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Navoiy viloyati O‘zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib, uning iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning, xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Viloyatning investitsion oqimlari tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borgan, bu esa hududning resurs salohiyati va erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati bilan chambarchas bog‘liq.

Ayniqsa, oltin qazib olish, kimyo sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar sezilarli ulushni tashkil etgan.

1-jadval

2020–2024-yillarda Navoiy viloyatida investitsiya ko‘rsatkichlari

Yil	Umumiy investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (mln. \$)	Yirik loyihalar soni	Yangi ish o‘rinlari (ming)
2020	21 500	480	7	9,5
2021	24 300	520	8	11,0
2022	28 700	610	10	12,7
2023	33 200	730	12	13,9
2024	39 800	850	15	15,4

Manba: <https://www.navstat.uz> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Navoiy viloyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 21,5 trln so‘mdan 2024-yilda 39,8 trln so‘mga yetgan, ya’ni 1,8 baravar o‘shish kuzatilgan. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar hajmi ham 480 mln. dollardan 850 mln. dollarga yetib, hududning xalqaro investitsion jozibadorligi ortib borgan. Buning natijasida yangi ish o‘rinlari soni ham 9,5 mingdan 15,4 mingga ko‘paygan. Bu esa Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalarning muhim drayver ekanligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Navoiy viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Manba: <https://www.navstat.uz>

Keltirilgan infografika Navoiy viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi va ularning manbalarini ko'rsatib beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jami investitsiyalar hajmi 23 429,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 129,1 foiz bo'lgan. Bu viloyatda investitsion faollik sezilarli darajada oshganini va asosiy kapitalga qo'shilgan mablag'larning iqtisodiy o'sish jarayonida muhim omil bo'layotganini anglatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar tarkibida markazlashgan mablag'lar 2 056,2 mlrd. so'mni, markazlashmagan investitsiyalar esa 21 373,6 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich hududda xususiy sektor va mahalliy tashabbuslarning faolligi yuqori ekanidan dalolat beradi. Markazlashmagan investitsiyalarning katta ulushi bozor mexanizmlarining kuchayib borayotganidan va hududning iqtisodiy mustaqilligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Manbalar tarkibiga e'tibor qaratilsa, jalb etilgan mablag'lar 19 153,1 mlrd. so'mni tashkil etib, umumiy investitsiyalar tarkibida eng yirik ulushga ega. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar esa 18 562,5 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bu viloyat iqtisodiyotining jahon bozorlariga integratsiyalashuvi kuchayayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, o'z mablag'lari ham muhim manba bo'lib, 4 276,7 mlrd. so'mlik ulush bilan investitsion jarayonlarda ichki imkoniyatlar ham faol ishtirok etayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasidan mablag' ajratilmaganligi hudud infratuzilmasida hali ham yechimini kutayotgan muammolar borligidan darak beradi. Demak, investitsion oqimlarning katta qismi sanoat, ishlab chiqarish va yirik loyihalarga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ijtimoiy soha va kommunal infratuzilmaning rivojlanishiga e'tibor kuchaytirilishi talab etiladi. Bu esa kelgusida hududiy rivojlanishning muvozanatli bo'lishi va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun zaruriy shartdir.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatida investitsion faollikning oshishi hududning tabiiy resurslari, yirik sanoat korxonalari va erkin iqtisodiy zonalar faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Viloyat oltin, uran va boshqa foydali qazilmalarga boy bo'lgani uchun xorijiy sarmoyadorlar, xususan kon-metallurgiya va kimyo sanoatiga alohida qiziqish bildirmoqda. Shu bois investitsiya oqimlari ko'proq sanoat tarmoqlariga yo'naltirilgani kuzatilmogda. Biroq, hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyalarni qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi va ijtimoiy infratuzilmaga ham kengaytirish talab etiladi. Investitsiya tarkibini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, markazlashmagan investitsiyalar ulushi juda yuqori. Bu xususiy sektorning hududdagi rolini mustahkamlayotganini bildiradi. Shu bilan birga, xorijiy kreditlar va jalb etilgan mablag'larning katta ulushi investitsion jarayonlarning tashqi manbalarga qaramligini oshirmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ichki manbalarni samarali safarbar qilish, mahalliy korxonalarning investitsiya salohiyatini kengaytirish zarur.

Tahlillar ijtimoiy infratuzilma sohasida ayrim muammolar borligini ko'rsatmoqda.

Masalan, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish uchun investitsiya ajratilmagan. Bu aholining turmush sifati va ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shunday ekan, kelgusi bosqichlarda investitsiya siyosatini diversifikatsiya qilish, ya'ni sanoat bilan bir qatorda ijtimoiy infratuzilma va ekologik loyihalarga ham ustuvor ahamiyat berish Navoiy viloyatining investitsion jozibadorligini yanada oshiradi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyati O'zbekistonning eng yirik sanoat va investitsion markazlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Viloyatda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi, xususan, xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta ulushni egallashi hududning xalqaro miqyosdagi jozibadorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, markazlashmagan investitsiyalarning yuqori bo'lishi xususiy sektorning investitsion jarayonlarda faol ishtirok etayotganini bildiradi. Biroq, investitsiyalar asosan sanoat tarmoqlariga yo'naltirilayotgani, ijtimoiy infratuzilma, suv ta'minoti va ekologik barqarorlikka yetarli e'tibor berilmaganligi muhim muammo sifatida qayd etildi. Kelgusida hududning investitsion siyosatini diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va mahalliy manbalarni samarali safarbar etish orqali Navoiy viloyatini nafaqat respublika, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida raqobatbardosh investitsion hududga aylantirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nadirkhanov, U.S. (2021). Increasing the investment attractiveness of the Republic of Uzbekistan: results, problems, prospects. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(5), pp. 45–53.
2. Amonboev, M. (2018). Establishing stock market attractiveness and investment infrastructure in Uzbekistan. *International Journal of Economics and Finance*, 4(1), pp. 19–28.
3. Anvarovich, N.E. (2023). Main goals, proposals and recommendations to increase the investment attractiveness of the region. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 4(3), pp. 67–74.
4. Lee, H-S., Chernikov, S.U. & Nagy, S. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI. *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*, 35(1), pp. 124–139.
5. Chernikov, S.U. (2022). Institutional determinants of investment attractiveness in transition economies. *Journal of Institutional Studies*, 14(2), pp. 55–63.
6. Nagy, S. (2022). Foreign direct investment flows in Central Asia: empirical determinants and challenges. *Journal of Asian Economics*, 78, pp. 101–117.
7. Nurasheva, K.K. (2024). Capital inflow and investment attractiveness of Central Asia. *International Economics and Economic Policy*, 21(2), pp. 233–249.
8. Mitrofanov, E. (2021). Regional investment attractiveness: model analysis in the Volga Federal District. *EPJ Web of Conferences*, 238, pp. 1–8.
9. Shcherbakova, D.V. (2019). Factors of investment attractiveness of Russian regions. *Journal of Applied Economic Research*, 5(2), pp. 122–131.
10. Nguyen, H.T. (2024). Foreign direct investment and employment in Asia-Pacific countries. *Journal of Asian Business and Economic Studies*, 31(1), pp. 15–29.

11. Le, A.N., Tan, L.H. & Choi, J. (2023). Political stability and FDI inflows in Asia-Pacific countries. *Humanities and Social Sciences Communications (Nature)*, 10(1), pp. 225–238.
12. Smith, J. (2020). Foreign direct investment and regional economic growth: a comparative analysis. *Journal of International Economics*, 127, pp. 101–118.
13. Karimov, A. (2022). Regional investment policy in Uzbekistan: problems and development priorities. *Economics and Education*, 23(3), pp. 84–92.
14. <https://www.navstat.uz>